

NAVOIYNING “ZIHI HUSNUNG” G`AZALIDA ARABCHA O`ZLASHMALAR

Nukus DPI talabasi - Reymova Gulrux

Nukus DPI talabasi - To`xtaboyeva Munisa

Nukus DPI talabasi - Muhiddinova Yulduz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Badoye ul bidoya” devoniga kiruvchi mashhur “Zihi husnung ” deb boshlanuvchi g`azalidagi arabcha so`zlar va ularning izohi hamda g`azaldagi qo`llanilgan arabcha so`zlar lug`ati keltiriladi

Kalit so`zlar: Alif ,Navoiy, arab tili, g`azal, musulmon, shoir, Qanoat

Alisher Navoiy davrida turkiy til bilan birga yana ikki tilda ijod qilish an`ana hisoblangan. Hazrat arab va fors tilidan ham foydalanib, asarlarining jozibali, o`quvchini o`ziga sehrlay oladigan darajada bo`lishiga erishgan. Shu bois Navoiy asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma`naviy, lisoniy boylik hamdir. Bu boylik tarkibiy qismida ish qurollariga oid so`zlar ham mavjud. Alisher Navoiyning tili, so`z boyligi to`g`risida maqola yozish oson emas. Navoiyning lisoniy olami shu qadar ulkan va behudud ummonki, mutaxassis har qancha qunt va izchillik bilan harakat qilmasin, uni butunisicha qamrab ololmaydi.

Hazratning asarlarini tushunish uchun arab va fors tillarini mukammal bilish talab etiladi.

“Chun mulkdin ba`zi aqolim va kisjvarda sort salotini mustaqil bo`ldilar,ul munosabat bila forsiygo`y shuaro zuhur qildilar.” Ana shu ikki tarixiy omil natijasida turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan shoir va olimlarning ko`pi fors tilida yozishga rag`batlanganlar.Alisher Navoiy o`z asarlarini turkiy yoki forsiy tilda yozganidan qati`nazar uning asarlarida arabcha o`zlashmalarni ko`rish mumkin

“Zihi husnung” deb boshlanuvchi g`azalida quyidagi arabcha o`zlashmalarni ko`rishimiz mumkin

Hazrat Navoiy g`azallarida bevosita Allohga bo`lgan muhabbat – ishqiy ilohiy tarannum etilgan. Masalan, «Badoye ul- bidoya” devonidagi mana bu baytni olaylik:

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g`avg`o.

Bu erda so`z chindan Yaratganning husnu jamoli, uning ishqida har kim turli shaydoliklarga uchradi, ana shu savdolar ikki olam bozorida yuz g`avg`olar sababi ekani haqida boradi. Misralardagi savdo so'zi birinchi baytning oxirida va ikkinchi bayt boshida kelib, tardi aks san'atini yuzaga chiqaradi.

Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig' osonkim,
Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo.

Allohning mavjudligi aslida yashirin, pinhonligi esa insonlarga ayondir. Baytdagi ikkinchi misra tardi aks san`atiga misol bo`la oladi, hamda oson va qiyin paydo va pinhon so`zlari tazod sanatini keltirib chiqaradi.

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o`t solding,
Samandardek ul o`tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Bu olamdagi husninga oshiqqlarni olovga solib ulardan chiroyli bir gulxan yasading. Va ushbu hamdingda bulbullarning xuddi samandar qushi kabi bunda olovga kirishdi.

Ne ishga bo`ldi beorom ko`zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko`zgusida aksingni ko`rguzmadi Laylo.

Quyoshg'a gah qizormoq, goh sorg'ormoq erur andin,
Ki sun'ung bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.

Nedin yuz gul ochar ishq o`tidin bulbul kibi Vomiq,
Yuzungdin gar uzori bog'ida gul ochmadi Uzro?

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,
Nedin bas la'l o`lur Farhodning qon yoshidin xoro?

Layli husnining ko`zgusida aksini ko`rgizib, Majnunni ko`zgu aksidek beorom qilgan ham ; husn gulshanida yuz ming guli ra'no yaratib, quyoshni xijolatdan goh qizartirib, goh sarg'aytirgan ham; Uzroning uzori bog'ida yuzining gulini ochib, Vomiqni yuz gul ochirgan ham; kalomini Shirin labiga yashirib, Farhodning ko`zyoshlarini qip-qizil la'lga aylantirgan ham shu husndir: Baytda uzor va Uzro orqali ishtiyoq; Uzro va gul ochmadi hamda gul va bulbul orqali tanosub; «yuz gul ochar» birikmasidan iyhom.

Jamoling partavidin sham' o`ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o`t ichra o`zin solur Xaliloso?

Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya'ni
Ki mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.

Qanoatning dalilin inzivo qilding, yana bir ham
Dalil ushbuki qoni' harfidin xalq aylading anqo.

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.

Yuzingdan taralayotgan nur oldida butun olamdagi sh`amlarni yoqsa bir guliston bo`lmas, Qanoat qoni' anqo.so`zlari tajnis san`atini yuzaga keltiradi. Keyingi baytda sarvqadlar qomatinining go`zalligi alif harfining atrofidagi zer u- zabarlar kabi

go`zallik baxsh etgani misol qilib keltirilgan. Qanoat qoni' anqo.so`zlari tajnis san`atini yuzaga keltiradi.

Maqtada Navoiy o`zini bir tikan kabi deb tasvirlaydi va sening vasfingni qilishlikni menga kim qo`yibdi, axir tikan jannat gulini tasvirlay olurmi?

Zuhur--arabcha zoxir bo'lish,,ko'rinish,paydo bo'lish

Savdo-arabcha kuchli ehtiros,berilishishq,shaydoliq.

2.xayol,tentaklik,jinnilik,.3.istak havas orzu

Kavnayn-arabcha ikki dunyo

Mushkul-arabcha qiyin

Sun'-arabcha yasash yaratish qudrat.2.ish hunar

Vomiq-arabcha oshiq ishqqa giriftor"Vomiq va Uzro" dostonida Uzroga oshiq yigit

Muzmar-arabcha yashiringan berkitilgan,yashrin,bekik ko'ngilda saqlangan

Malohat-arabcha go`zallik husn

Qomat-arabcha bo'y qad gavda

Alif-arabcha arab alifbosida 1-harf.2.abjad hisobida 1.2.majoziy tik shakl.3. tik qomat.4.kishining badaniga chekilgan holning tikka shakli

Qanoat-arabcha boriga shukr qilish

Inzivo-arabcha jamiyatdan chekinish tanxolik xech kimga aralashmay bir burchakka kirib qolish

Qoni'arabcha qanoat etuvchi boriga rozi bo'lib ortiqcha narsa istamaydigan

Anqo-arabcha oti bor o'zi yo'q afsonaviy qush

Mus`haf-arabcha kitob risolalar to'plami.2.qur'on(diniy kitob)

Azal-arabcha boshanish ibtidosi nomalum o'tgan zamon

Xat-arabcha chiziq iz.2.yozuv xat.3.yangi chiqqan mo'ylab

Insho-arabcha paydo qilish,yuzaga keltirish.2.ijod sochma asar.3.yozuv xat

Abad-arabcha so'ngi yo'q kelajak zamon,abadiy doimiy

Nuqta-arabcha nozik ma'noli so'z,qiziq,ma'nosi chuqur va chiroyli so'z

Tug'ro-arabcha gerb, davlat nishonasi,podshohning yorliq, faron va qarorlari yozilgan qog'ozning tepasiga yozilgan maxsus belgi.2.Maktublarning tepasiga yozilgan maxsus so'z,3.Kitoblarning boshiga tushirilgan chiziqli rasm

Alisher Navoiy g`azallarida arabcha so`zlarni keltirishi , arabiy jummalardan foydalanib g`azallar bitishi o`z davrining bir jihatdan talabi edi. Negaki XIV asrlar adabiyoti forsiy tilda bitilishi, shoirlar fors tilida ijod qilishlari turkiy tilni kambag`al deya kamsitishlari, bu tilda jozibador g`azallar bitishni majhul ish deya ko`rishlari Navoiy bobomizga O`z tilining mavqeyini ko`tarish, ona tilining fors tilidan qolishmasligi, zarur xollarda fors tilida turkiy unsurlardan foydalanib ijod qilishayotgan ijodkorlarga turkiy tilning qaddini ko`rsatish uchun arab tili bir jihatdan tirkak vazifasini o`tab bergan.

Hazrat Navoiy ijodida xalqimizning botiniy qiyofasi, qalbi va tafakkuri to'la namoyon bo'ladi. Navoiy adabiyotimizda ham, ma'naviyatimizda ham katta jarayonlarning boshlovchisi sifatida qad ko'targan. Shuning uchun ham uning ijodida biz uchun muhim bo'lgan barcha narsa bor. Umuman, Navoiy bobomizning har bir ijod namunalari avlodlarga qoldirilgan ma'naviy, madaniy misli yo'q boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy "Boadye ul bidoya" dostoni.
2. Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti
4. kh-davron.uz
5. zamin.uz
www.ziyouz.com
www.uzauz
www.ilm.uz